

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA DIDAKTIKA

ДИДАКТИКА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

DIDACTICS IN THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

ABDULLAYEVA DILOROMXON NO'MONOVNA
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktikaning tutgan o'rni hamda uning nazariy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonini ilmiy tashkil etish, o'qitish mazmunini belgilash va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos didaktik tamoyillarni (ko'rgazmalilik, izchillik, tizimlilik) qo'llash masalalari yoritilgan. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va didaktik o'yinlar yordamida boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, boshlang'ich ta'lim, pedagogik faoliyat, ta'lim tamoyillari, metodika, didaktik o'yinlar, o'qitish nazariyasi, o'quvchi faolligi.

Аннотация: В статье анализируются роль, теоретическое и практическое значение дидактики в педагогической деятельности учителей начальных классов. Рассматриваются вопросы научной организации учебного процесса, определения содержания обучения и применения дидактических принципов (наглядности, последовательности, системности) с учетом возрастных и психологических особенностей младших школьников. Научно обоснованы механизмы гармонизации деятельности учителя и учащихся, повышения познавательной активности школьников, а также роль современных педагогических технологий и дидактических игр в повышении эффективности начального образования.

Ключевые слова: дидактика, начальное образование, педагогическая деятельность, принципы обучения, методика, дидактические игры, теория обучения, активность учащегося.

Abstract: This article analyzes the role, theoretical, and practical significance of didactics in the pedagogical activity of primary school teachers. It explores the scientific organization of the educational process, determining teaching content, and applying didactic principles (visual learning, consistency, and systematicity) in line with the psychological and age characteristics of primary school pupils. The study provides a scientific foundation for harmonizing teacher-student interaction, enhancing students' cognitive activity, and utilizing modern pedagogical technologies and didactic games to increase the efficiency of primary education.

Keywords: didactics, primary education, pedagogical activity, educational principles, methodology, didactic games, learning theory, student activity.

Boshlang'ich ta'lim – bu umumiy o'rta ta'limning poydevori bo'lib, o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi va bilim olishga bo'lgan motivatsiyasi aynan shu bosqichda qaror topadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchisidan nafaqat fan asoslarini o'rgatish, balki ta'lim jarayonini ilmiy-didaktik asosda tashkil etish talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos usul va vositalarni tanlash hamda o'zlashtirishni ta'minlash asosidir. U dars samaradorligini oshirish, didaktik o'yinlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika orqali ta'lim mazmunini belgilaydi, o'qitish metodlarini tanlaydi va o'quvchilarning bilim saviyasini nazorat qiladi. Didaktik tamoyillar boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlariga (ko'rgazmalilik, tushunarlik) mos kelishi shart. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda didaktik strategiyalarni qo'llash va pedagogik mahoratni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy vositasi bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktika pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimai "ta'lim nazariyasi" ma'nosini anglatadi. Didaktika "yunoncha" so'zdan olingan bo'lib, "didacticos" - o'rgatish, o'qitish ma'nosini bildiradi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika - ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari,

shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy "hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati" deb tushuntirdi.

"Didaktika" atamasi ilk bor nemis pedagogi Wolfgang Ratkening "Didaktika yoki ta'lim san'ati" (1613-yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" (1657-yil) asarida ochib berilgan.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika – bu ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish nazariyasi va metodikasini birlashtiruvchi markaziy bo'g'indir. Pedagog – olimlar yillar davomida ta'lim tizimida Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? Qayerda o'qitamiz? kabi savollarga javob izladilar. Didaktika "nimaga o'qitish?", "nimani o'qitish?", "qaerda o'qitish?", "qanday o'qitish?" kabi savollarga javob beradi.

Ushbu holatga asosan 1990-yillarning o'rtalarida ta'lim sohasiga oid teoriyalar va ularning asoschilari, o'sha davr amaliy darslari va o'qitish tarixi, talqin qilish kabilar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Men o'z hamkasblaringa qarata o'zida "qanday o'qitish" kabi savollarga javob topish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'llanmalar avval

ham, xozir ham ta'lim jarayonida asosiy ustun bo'lib kelgan va talabalar, izlanuvchilarga amaliy maslahat ko'rsata olgan deb ayta olaman. Didaktikaning ob'yekti - o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta'lim berishdir.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchilarning bilish faoliyati), ularning o'zaro harakati aks etadi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytgach, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning

faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika mazkur mezonlarga binoan boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligiga erishiladi. Keyingi paytlarda boshlang'ich ta'limda texnik vositalarni va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llanilayotganligi bois boshlang'ich ta'limning samaradorligi aynan ana shu jarayon bilan baholanmoqda. Biroq, boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi eng avvalo o'qituvchilarning faoliyati bilan baholanishi kerak. Chunki o'qituvchining asosiy maqsadi o'quv fanlarini talab darajasida o'qitish, tushuntirish va uning yo'nalishlarini baholab borishdan iborat. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim didaktikasida texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar samaradorlikka erishishning ikkilamchi asosi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktikaning samaradorligiga erishish ko'nikmasini egallashi taqozo etiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslari va yordamchi didaktik adabiyotlar xususiyatlari to'g'risida aniq bilimga ega bo'lishi kerak. Boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qitishning oddiydan murakkablikka tamoyiliga asoslaniladi. Bunda

o'quvchilarning bilim darajasi va ko'nikmasi bosqichma-bosqich rivojlanib borishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Hozirgi zamon texnologiyasining rivojlanishi natijasida boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'lim, kompyuterli texnologiyali ta'lim kabilar keng qo'llanilmoqda. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika shu sababli bunday texnologiyali ta'lim turlarining didaktikasini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Bu borada bizning yondashuvimiz boshlang'ich ta'lim

o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida didaktika imkoniyatlar boshlang'ich ta'limda maqsad bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining pedagogik faoliyatida didaktika shunchaki nazariy bilimlar to'plami emas, balki ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy metodologik vositadir. Umuman olganda, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining didaktik kompetentligi – bu o'quvchini darsning ob'ektidan faol sub'ektiga aylantirish garovidir.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, "Sano-standart" nashriyoti
2. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU. 2012.
3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019
4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." International Bulletin of Applied Science and Technology 3 (2023): 151-154.
5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." Academic research in educational sciences 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.
6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." Молодежь и XXI век-2015. 2015.
7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 8-2 (2018): 58-60.
8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 5-6 (2018): 53-55.
9. Madina, N. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CIRCULATION IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS ON THE BASIS OF INDICATIVE EDUCATIONAL MODELS. Eurasian Journal of Academic Research, 4(11), 144-146.
10. Мадина, Н. (2024). Педагогические условия совершенствования системы циркуляции в подготовке будущих специалистов на основе показательных образовательных моделей. Евразийский журнал академических исследований , 4 (11), 144-146.
11. Nurmatova, M. O., & Abdullayeva, D. N. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA O'QITUVCHILIK MAXORATNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. Inter education & global study, 3(5 (1)), 213-218.
12. Зияев А.Н., Хушназарова М.Н., Меликузиева М.А., Абдулладжанова С.А., Абдуллаева Д., Нурматова М. и Екубьонова Г.Х. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. SNIERS MAGELLANES-NS , 6 (2), 7938-7944..
13. Gulyamova, Z. R., & Nurmatova, M. O. (2014). FEATURES OF THE FUNCTIONING AND WORD FORMATION OF SLANG UNITS. The Way of Science, 45.